

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
Geografiya ixtisosligi I bosqich magistranti
Nematova Xurshida Xayitovnaga

TAVSIYANOMA

Nematova Xurshida Xayitovna 1981-yilda Buxoro viloyati Vobkent tumanida tugʻilgan. Millati oʻzbek. Nematova Xurshida Xayitovna 1997-2001-yillarda Buxoro davlat universiteti Tarix-geografiya fakulteti, geografiya taʼlim yoʻnalishini muvaffaqiyatli tugatgan. 2001-yildan buyon geografiya fani oʻqituvchisi sifatida viloyatda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Oliy toifali geograf boʻlib, Buxoro shahar geografiya oʻqituvchilariga trener oʻqituvchi sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Nematova Xurshida Xayitovna ilmiy rahbari D.K.Zaynutdinova rahbarligida “Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Uning bir nechta ilmiy maqolalari nufuzli ilmiy jurnalida nashr qilingan. Universitetda anʼanaviy ravishda oʻtkazilib kelinayotgan talabalar anjumanlarida, tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Ingliz, rus, tojik tillarini bilganligi sababli muloqot doirasi va izlanish darajasi keng. Ingliz tilidan (B2) darajadagi milliy sertifikatni qoʻlga kiritgan. Shuningdek geografiya fanidan B+ darajadagi milliy sertifikat sohibi. Geografiya fani oʻqituvchisi sifatida ham ish tajribasi viloyat miqyosida ommalashgan.

X.Nematova universitetda taʼlim olish jarayonida oʻzining tirishqoqligi va intiluvchanligi bilan jamoada oʻz oʻrniga ega. Bundan tashqari X.Nematova universitet maʼnaviy-maʼrifiy ishlarida ham faol ishtirok etib keladi.

Nematova Xurshida Xayitovna jamoada oʻzining kamtarinligi, har bir ishga vijdonan yondashishi, haloligi, yuksak intellektual salohiyati, shuningdek guruhdagi doʻstlari uchun ham jonkuyar inson ekanligi alohida tahsinga loyiq. Nematova Xurshida Xayitovna fidoyi inson va tajribali pedagog.

**Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri**



Y.D.Xolov